BAMIYA O`SIMLIGINING AYRIM XUSUSIYATLARI SHARHI

Saydaliyev Begijon
Andijon qishloq xo‘jaligi Agrotexnalogiyalar instituti magistranti

Annotatsiya: Maqolada bamiya o`simligining dorivor va oziq-ovqat mahsuloti sifatidagi jihatlari ko`rib chiqiladi. Bamiya yorug‘ va issiqsevar o‘simlik bo‘lib, navlarining biologik xususiyatlari va yetishtirish sharoitlariga bog‘liq holda vegetatsiya davri turli muddatlarda davom etishi aniqlandi.

Kalit so‘zlar: bamiya, Malvaceae, o‘g‘it, o‘simlik, issiqlik, namlik, urug‘, introduksiya.

KIRISH

Respublikamiz sug‘oriladigan yerlarining turli darajada sho‘rlanganligi, qurg‘oqchilik va cho‘llanish jarayonlari kuchayib borayotgan davrda noyob va istiqbolli o‘simliklarni izlab topish, ularning bioekologik, fiziologik va biokimyoviy xususiyatlarini o‘rganish, muayyan tuproq-iqlim sharoitlariga moslashtirish ya’ni introduksiya qilish va ularni ishlab chiqarishga joriy qilish bugungi kunning dolzarb masalalaridan hisoblanadi.

Shuningdek, ekinlarni almashlab ekish tizimiga yangi istiqbolli o‘simliklarni kiritish o‘simlikning chidamliligining ortishiga va agrotsenozning barqarorligiga imkon yaratadi. Keyingi yillarda respublikamiz ekin maydonlariga ertapisharligi, yuqori hosildorligi, turli zararkunanda va kasalliklarga chidamliligi bilan ajralib turadigan o‘simliklarni ekish tavsiya qilinmoqda. Ana shunday o‘simliklar qatoriga bamiya o‘simligini kiritish mumkin. Bu o‘simlik serqirraligi bilan ajralib turadi. Bunday noyob va istiqbolli o‘simliklar yaqin kelajakda mamlakatimiz aholisini sifatli oziq-ovqat, sanoatni xom-ashyo va chorvachilikni to‘yimli yem-xashak bilan ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etishi tabiiydir.

ASOSIY QISM

Hibiscus esculentus L.- *Malvaceae* oilasining *Hibiscus* turkumiga mansub ko‘p yillik o‘simlik bo‘lib, (madaniylashgan holda bir yillik o‘simlik), barcha issiq mamlakatlarda –Osiyo, Afrika va Amerika hamda Janubiy Yevropada ekiladi. Bamiya o‘zvatani –tropik Afrikadan tortib boshqa mamlakatlarda ham keng tarqalgan sabzavotlardan biridir. Tarixiy manbalardan ma’lumki, bamiyani Qadimgi Misrda eramizdan ikki ming yil oldin ham ekib ko‘paytirishgan [1].

O‘zbekiston florasida *Malvaceae* oilasining 7 turkumga mansub 27 ta turi uchraydi [2,3]. Bolqon yarim oroli, Kichik Osiyo, Afg‘oniston va Qrim, O‘rta Osiyo, Shimoliy Kavkaz va Kavkazorti mamlakatlarida bamiya-tomorqada yetishtiriladigan o‘simlik sifatida uchraydi. Hindiston, Nigeriya va AQSh ning uncha katta bo‘lmagan janubiy tumanlarida o‘simlik tolasi uchun ekib o‘stiriladi.

Bamiya – issiqsevar o‘simlikdir, ayniqsa maysalari issiqlik va namlikka yuqori ehtiyoj sezadi. Bamiya oziq-ovqat va yem-xashak ekini sifatida katta ahamiyatga ega bo‘lgan istiqbolli o‘simlikdir. Yashil massasi chorva mollari uchun to‘yimli ozuqa hisoblanadi. Uning biomassasi ko‘k ozuqa sifatida, o‘t uni va silos tayyorlashda ishlatiladi.

Bamiyaning 3-5 kunlik yosh ko‘saklaridan ajoyib sho‘rvalar, garnirlar va tansiq gazaklar tayyorlash mumkin. Yam - yashil rangdagi ko‘saklarini qaynatish, qovurish mumkin, ularni quritib, muzlatib, konservalab qishga olib qo‘yiladi. O‘simlik tarkibida (yosh ko‘saklari va urug‘i) inson organizmi uchun foydali bo‘lgan oqsillar, askorbin kislotasi, V guruhi vitiminlari, shuningdek katta miqdorda yopishqoq moddalari bo‘lganligi bois undan tayyorlanadigan taomlar oshqozon-ichak kasalliklari bilan og‘rigan bemorlar uchun qimmatli parhez taom bo‘lib hisoblanadi.

Bamiya qaynatmasidan nafas yo‘llari kasalliklari, xususan bronxit va yo‘talni davolashda foydalaniladi. Uning poyasidan oq dag‘al tola olish ham mumkin.

Bamiya gulining tojibarglari va tumshuqchasidan tropik mamlakatlarda bo‘yoq olishda foydalaniladi.

XULOSA VA MUNOZARA

Bamiya takroriy ekin sifatida ekilganida o‘zidan oldin ekilgan ekinga maxsus talablar qo‘ymaydi. Eng muhimi – bamiyadan oldin ekilgan ekin ertaroq yig‘ishtirib olingan va tuproqni ekishga sifatli tayyorlash uchun yetarli vaqt bo‘lishi kerak. Xorazm viloyatining tuproq va iqlim sharoitlarida bamiyani iyun oyining 15-20 sigacha ekish zarur, aks holda hosilning bir qismi ayozli kunlarga qolib ketadi.

Bamiya tuproq unumdorligiga sezuvchan o‘simlikdir. Urug‘laridan yuqori hosil olish uchun mineral o‘g‘itlar bilan birga organik o‘g‘itlar (go‘ng, yashil massa - sideratlar) ni qo‘llash zarur.

ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. Qarshiboev X.Q., Ashurmetov O.A. O‘simliklarning o‘sishi va rivojlanishi: Metodik ko‘rsatmalar. –Toshkent, 2009. -22 b.
2. To‘xtayev B.E. O‘zbekistonning sho‘r yerlarida dorivor o‘simliklarni introduksiya qilish. Abstrakt dis. …dok. biol. Fanlar. – Toshkent, 2009. -38 b.
3. Pugachev I.I., Kalyagina L.G. O‘zbekiston sharoitida bamya kollektsiyasini o‘rganish // O‘zbekistonda sabzavot va meva ekinlari seleksiyasida jahon kolleksiyalaridan foydalanish. - Toshkent: SAFVNIIR SAO VASKNIL, 2017. -4-8-betlar.
4. Rustamovna, O. G., & Murodullaevich, S. O. Estimation Of Efficiency Of Application Of Liquid Substitutes When Wearing Contact Lenses. *JournalNX*, 94-97.
5. Одилова, Г. Р., Муродуллаева, Н. О., & Аминжонова, Ч. А. ОФТАЛЬМОЛОГИЯ ФАНИНИ¤ ЛИТИШ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШДА ТАЪЛИМНИНГ ТЕХНИК ВОСИТАЛАРИ АФЗАЛЛИКЛАРИ. In *«СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ, ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ МЕДИЦИНСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ» МЕЖДУНАРОДНАЯ УЧЕБНО-НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ «ТИББИЙ ТАЪЛИМНИНГ ЗАМОНАВИЙ ҒОЛАТИ* (p. 177).
6. Одилова, Г. Р., & Рамазонова, Ш. Ш. (2022). СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ЛЕЧЕНИЕ АНИЗОМЕТРОПИЧЕСКОЙ АМБЛИОПИИ СРЕДНЕЙ СТЕПЕНИ У ДЕТЕЙ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, *2*(2), 315-320.
7. Одилова, Г. Р., & Икромова, С. Б. (2022). РАННИЕ МОРФОМЕТРИЧЕСКИЕ ИЗМЕНЕНИЯ МАКУЛЯРНОЙ ЗОНЫ СЕТЧАТКИ У БОЛЬНЫХ С САХАРНЫМ ДИАБЕТОМ. *Results of National Scientific Research International Journal*, *1*(9), 58-60.
8. Одилова, Г., & Худдиева, Н. (2023). СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ЭФФЕКТИВНОСТИ АНТИБАКТЕРИАЛЬНОЙ ТЕРАПИИ В ЛЕЧЕНИИ БАКТЕРИАЛЬНОГО КОНЪЮНКТИВИТА. *Инновационные исследования в современном мире: теория и практика*, *2*(22), 92-94.
9. Одилова, Г. Р., & Бобоева, Р. Р. (2019). Особенности клинического течения и диагностики поражение глаз при цитомегаловирусном инфекции. *Биология и интегративная медицина*, (3 (31)), 51-58.
10. Одилова, Г. Р., & Бобоева, Р. Р. (2019). Патология глаз при хроническом вирусном гепатите. *Биология и интегративная медицина*, (3 (31)), 59-66.